



ISSN: 2181-9416

2-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEP 2

LAWYER HERALD

ISSUE 2



FAYZULLAYEV Aslbek Ulug'bek o'g'liToshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va
korrupsiyaga qarshi kurashish sho'basi
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: Aslbekf@mail.ru

MULKNI QASDDAN NOBUD QILISH YOKI UNGA ZARAR YETKAZISH JINOYATINING SUBYEKTIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): FAYZULLAYEV A.U. Mulkn qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyatining subyektiga oid ayrim mulohazalar // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 2 (2026) B. 124-132.

2 (2026) DOI [http: https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/2-013](http://https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/2-013)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mulkn qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyatining subyektiga oid zaruriy belgilari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, jinoyat subyekt tushunchasi, uning asosiy belgilaridan biri sifatida jinoiy javobgarlik yoshi va aqli rasolik mezonlari ilmiy asosda yoritiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 173-moddasi doirasida ushbu jinoyatni sodir etuvchi shaxslarning yosh xususiyatlari va ularning javobgarlikka tortilish mezonlari o'rganiladi. Statistik ma'lumotlar asosida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan mazkur turdagi jinoyatlarning ulushi nisbatan past ekanligi aniqlanadi. Muallif jinoiy javobgarlik yoshini aniqlashda tibbiy-biologik, ijtimoiy-psixologik hamda huquqiy mezonlar o'zaro chambarchas bog'liq ekanligini asoslab bergan, shuningdek, ushbu omillarning jinoyat subyekt tushunchasini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatini izchil tahlil qilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalari asosida jinoiy javobgarlik yoshining umumiy va ayrim jinoyatlar uchun belgilangan maxsus chegaralari, shuningdek, voyaga yetmagan shaxslarning yoshini aniqlash tartibi va protsessual xususiyatlari tahlil qilingan. Mazkur jinoyatni sodir etishda voyaga yetmaganlarning ulushi nisbatan past bo'lib, ayniqsa 14–16 yosh toifasida bu ko'rsatkich juda kam darajada namoyon bo'ladi. Shu asosda jinoiy javobgarlik yoshini pasaytirish zarurati mavjud emasligi, balki amaldagi yondashuv ilmiy va amaliy jihatdan asoslanganligi xulosasi ilgari suriladi. Maqolada, jinoyat subyekt bilan bog'liq ayrim nazariy muammolar yuzasidan mualliflik yondashuvlari ham ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: jinoyat subyekt, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, voyaga yetmagan shaxs, jinoiy javobgarlik yoshi, mulkn qasddan nobud qilish, yosh belgisi, aqli rasolik, aqli norasolik, jinoyat huquqi, jinoyat qonunchiligi, yoshni aniqlash, yosh chegarasi.

ФАЙЗУЛЛАЕВ АслбекСамостоятельный соискатель кафедры
«Уголовное право, криминология и противодействие
коррупции» Ташкентского государственного
юридического университета
E-mail: Aslbekf@mail.ru

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О СУБЪЕКТЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ УМЫШЛЕННОГО УНИЧТОЖЕНИЯ ИЛИ ПОВРЕЖДЕНИЯ ИМУЩЕСТВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье теоретически и практически анализируются необходимые признаки субъекта преступления умышленного уничтожения или повреждения имущества. В частности, концепция

субъекта преступления рассматривается с научной точки зрения с учётом его основных характеристик — возраста уголовной ответственности и критерия вменяемости. В рамках статьи исследуются возрастные особенности лиц, совершающих данное преступление, а также критерии их привлечения к ответственности в соответствии со статьёй 173 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. На основании статистических данных выявлено, что доля несовершеннолетних, совершающих указанные преступления, сравнительно низка, особенно среди лиц в возрасте 14–16 лет. Автор обосновывает, что при определении возраста уголовной ответственности необходимо учитывать взаимосвязь медицинско-биологических, социально-психологических и правовых критериев, а также подробно анализирует роль этих факторов в формировании понятия субъекта преступления. В статье рассматриваются общие и специальные возрастные границы уголовной ответственности, установленные нормами УК Республики Узбекистан для отдельных видов преступлений, а также порядок определения возраста несовершеннолетних и процессуальные особенности. Доля несовершеннолетних в совершении данного преступления сравнительно невелика, особенно в возрастной группе 14–16 лет, что позволяет сделать вывод об отсутствии необходимости снижения возраста уголовной ответственности и подтверждает научную и практическую обоснованность действующего подхода. Также в работе предложены авторские подходы к некоторым теоретическим проблемам, связанным с субъектом преступления.

Ключевые слова: субъект преступления, физическое лицо, юридическое лицо, несовершеннолетний, возраст уголовной ответственности, умышленное уничтожение имущества, возрастная характеристика, вменяемость, невменяемость, уголовное право, уголовное законодательство, определение возраста, возрастная граница.

ASLBEK Fayzullayev

Independent Researcher Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-corruption
Tashkent State University of Law
E-mail: Aslbekf@mail.ru

SOME REFLECTIONS ON THE SUBJECT OF THE CRIME OF INTENTIONAL DESTRUCTION OR DAMAGE OF PROPERTY

ANNOTATION

This article provides a theoretical and practical analysis of the essential characteristics of the subject of the crime of intentional destruction or damage of property. In particular, the concept of the criminal subject is examined with a scientific approach, highlighting key attributes such as the age of criminal responsibility and the criterion of sanity. Within the framework of Article 173 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, the age characteristics of persons committing this crime and the criteria for their criminal liability are studied. Statistical data show that the share of such crimes committed by minors is relatively low. The author demonstrates the interrelated nature of medical-biological, socio-psychological, and legal criteria in determining the age of criminal responsibility, and thoroughly analyzes the role and significance of these factors in shaping the concept of the criminal subject. The article also examines the general and special age limits of criminal responsibility established by the norms of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan for certain types of crimes, as well as the procedures for determining the age of minors and related procedural features. Research results indicate that minors account for a relatively small proportion of these offenses, particularly in the 14–16 age group. Accordingly, there is no need to lower the age of criminal responsibility, and the current approach is justified both scientifically and practically. The article also offers the author's perspectives on certain theoretical issues related to the criminal subject.

Keywords: criminal subject, natural person, legal entity, minor, age of criminal responsibility, intentional destruction of property, age criterion, sanity, insanity, criminal law, criminal legislation, age determination, age limit.

Jinoyat tarkibi elementlarini tavsiflashda jinoyat subyekti alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat subyekti muammolari ko'plab olimlarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Subyekt jinoyat tarkibining elementi sifatida ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va anglab yetishni talab qiluvchi ancha murakkab kategoriya hisoblanadi [1, B.72]. Biroq hozirgi vaqtga qadar jinoyat tarkibining ushbu elementi va uning belgilariga doir ayrim masalalar bahsliligicha qolmoqda.

Qonun chiqaruvchi nuqtai nazaridan qaraganda, jinoyat subyektining belgilari jinoyat qonunida aniq belgilangan va ko'rsatib o'tilgan. Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq, jinoyat qonunida belgilangan yoshga yetgan va aqli raso bo'lgan jismoniy shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi [2, B.34].

Jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan shaxslar quyidagi zaruriy belgilarga ega bo'lishi kerak:

- a) Jismoniy shaxs bo'lishi
- b) Aqli raso bo'lishi
- c) Jinoyat qonunida belgilangan yoshga yetgan bo'lishi

O'zbekiston jinoyat qonuniga jinoyat subyektining zaruriy belgisining biri sifatida faqat jismoniy shaxslarning javobgarligi nazarda tutiladi.

Jinoyat qonuni an'anaviy ravishda jinoyat subyektini "shaxs" deb ataydi. Umumiy huquqiy ma'noda subyektlarsifatida alohida individlar – jismoniy shaxslar hamda muayyan tashkilotlar – zamonaviy terminologiya bo'yicha yuridik shaxslar tushuniladi. Biroq, O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, jinoyat subyekti faqatgina jismoniy shaxs, ya'ni inson bo'lishi mumkin. "Jismoniy shaxs" tushunchasi o'z ichiga uchta tarkibiy qismni qamrab oladi: individ, shaxs va fuqaro [3, B.205].

Jinoyat kodeksi qoidalariga ko'ra, faqat jismoniy shaxs, ya'ni inson jinoiy javobgar bo'lishi mumkin. Aytish kerakki, jinoyat qonunchiligida jismoniy shaxs tushunchasi to'g'ridan-to'g'ri berilmagan. Biroq, Jinoyat kodeksi va boshqa huquqiy aktlarning mohiyatidan ko'rinadiki, jinoyat huquqidagi jismoniy shaxs tushunchasi Fuqarolik kodeksining 16-moddasidagi tushunchaga o'xshash bo'lib, unga ko'ra "fuqaro zamirida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlar fuqarolari va shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi" [4, B.234].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 11-moddasining mazmuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir qilgan O'zbekiston fuqarolari, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jinoyatning subyekti bo'ladilar. Jinoyat kodeksi 12-moddasining mazmuniga ko'ra, O'zbekiston fuqarosi yoki O'zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar xorij davlatlar hududida jinoyat sodir etib, o'sha davlat qonunlari bilan javobgarlikka tortilmagan bo'lsa, O'zbekiston jinoyat qonuni bo'yicha jinoyatning subyekti bo'lishlari mumkin.

R. Altiyevning yozishicha "Har qanday jinoyat jismoniy shaxs tomonidan sodir etiladi, shu sababli jinoyat subyekti jinoyat huquqida jinoyat tarkibining asosiy elementlaridan biri sifatida tavsiflanadi. Jinoyat subyektining mavjudligi jinoiy javobgarlikning muhim sharti hisoblanadi, ya'ni jinoiy javobgarlik faqat birinchi navbatda jinoyatni sodir etgan shaxs mavjud bo'lgan holda kelib chiqishi mumkin. Jinoyat huquqi nazariyasi va jinoyat qonuni talablari (O'zbekiston Respublikasi JK 17-moddasi)ga muvofiq, har qanday jinoyatning subyekti muayyan yoshga to'lgan, qonun bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni aybli tarzda sodir etgan aqli raso jismoniy shaxs e'tirof etiladi. Ayni shu sababli jinoyat-huquqiy nuqtai nazardan jismoniy shaxsning yoshi va aqli rasolik belgilari birinchi darajali ahamiyat kasb etadi" [5, B.66].

Biroq jinoyat huquqi ilmida yuridik shaxslarni jinoyat subyekti sifatida tan olish masalasi bo'yicha bahs-munozaralar davom etmoqda. Nafaqat olimlar, balki ko'plab amaliyotchi mutaxassislar ham bunday subyektlar uchun jinoiy javobgarlikni joriy etish zarurligini taklif qilmoqdalar.

A.V. Fedorovning hisob-kitoblariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyoning saksondan ortiq davlatida yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi nazarda tutilgan [6. B].

Yuridik adabiyotlar tahlili shunday xulosa qilish imkonini beradiki, jahon amaliyotida yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi institutini huquqiy tartibga solishning uchta asosiy modeli paydo bo'ldi. Birinchi model yuridik shaxslar jinoiy javobgarligining an'anaviy tuzilishiga asoslanadi, bunda yuridik shaxs jismoniy shaxs bilan bir qatorda jinoyatning mustaqil subyekti sifatida qaraladi. Ikkinchi model yuridik shaxslar jinoiy javobgarligining jinoyat sodir etishda shaxsning aybli javobgarligi tamoyilini ko'proq hisobga oladi va shaxsni jinoyatning yagona mumkin bo'lgan subyekti sifatida tan olishga asoslanadi. Uchinchi model yuridik shaxslarning jinoyatga aloqadorligi uchun ma'muriy javobgarligini nazarda tutadi.

O. Mahmudov "Jinoyat huquqiga yuridik shaxslarni jinoyat subyekti sifatida kiritish zarur" hisoblaydi "Umumiy ma'noda, jinoyat sodir etgan va jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan barcha shaxslarni (jismoniy va yuridik) jinoyat subyektlari deb atash maqsadga muvofiqdir" [3, B.211].

S.Sh.Utemuratova yuridik shaxslar jinoyat subyekti sifatida javobgarlikka tortilishi kerak degan fikri ilgari suradi, yuridik shaxs ijtimoiy xavfli harakati (harakatsizligi) uchun, eng avvalo ekologiyaga keltirgan zarari uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak" [7, B.76] deb hisoblaydi.

D.M. Kushbakov "Yuridik shaxsga nisbatan jinoyat-huquqiy ta'sir choralari qo'llash asoslarini shakllantirishda jinoyatning yuridik shaxs manfaatlari yo'lida sodir etilganligini aks ettirishi lozim" [8, B.1031].

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda qonun chiqaruvchi shunday pozitsiyaga amal qiladiki, unga ko'ra jinoiy javobgarlik faqat jinoyat sodir etganlikda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan nazarda tutilishi lozim.

Tadqiq etilayotgan mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyati o'zining subyektiv tomoni bilan bevosita qasd shaklida sodir etilishi bilan tavsiflanadi. Mazkur holat esa yuridik shaxslarning jinoyat subyekti sifatida e'tirof etilishi haqidagi ayrim nazariy konsepsiyalarni amaliy jihatdan istisno etadi. Chunki ushbu jinoyatning sodir etilishi bevosita ongli ravishda shakllangan qasd va shaxsning irodaviy xatti-harakatlarini talab qiladi. Shu boisdan ham mazkur turdagi jinoyatlar o'z tabiati va huquqiy mohiyatiga ko'ra faqat jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar sirasiga kiradi.

Mazkur holat jinoyat huquqida ayblilik prinsipi bilan ham bevosita bog'liqdir. Ma'lumki, jinoiy javobgarlikning asosiy shartlaridan biri shaxsning aybi, ya'ni uning qilmishga bo'lgan ruhiy munosabatining mavjudligidir. Yuridik shaxs esa mustaqil psixik jarayonlarga ega bo'lmaganligi sababli, unda qasd yoki ehtiyotsizlik kabi ayb shakllarining mavjudligini aniqlash murakkab hisoblanadi. Shu sababli jinoyat huquqining doktrinasida aybning subyekti sifatida faqat jismoniy shaxs e'tirof etiladi.

Bundan tashqari, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyati, odatda, aniq shaxsning ijtimoiy xavfli harakati natijasida sodir etiladi. Ushbu harakatlar muayyan maqsad, motiv va qasd bilan amalga oshiriladi. Mazkur belgilar esa jinoyatning subyektiv tomonini tashkil etib, aynan jismoniy shaxsning ongli faoliyati bilan bog'liqdir. Shu boisdan ham mazkur jinoyat tarkibini tahlil qilish jarayonida jinoyat subyekti sifatida yuridik shaxslarni emas, balki jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan va aqli raso jismoniy shaxslarni e'tirof etish zarur.

Jinoyat subyektining yana bir zaruriy belgisining aqli rasoligi hisobladi. Jinoyat kodeksining 18-moddasi mamuniga ko'ra jinoyat sodir etish vaqtida o'z harakatlarining (harakatsizligining) ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va ularni boshqara olgan shaxs aqli raso shaxsdir.

Jinoyat subyektining aqli rasoligi jinoiy javobgarlikning zaruriy sharti hisoblanadi. Jinoyat huquqi fanida boshqacha nuqtai nazar ham ilgari surilgan bo'lib, u aqli rasolikka, eng avvalo, subyektning belgisi sifatida qarashni taklif qiladi.

Aqli rasolik – jismoniy shaxs tomonidan sodir etilgan qilmishning jazoga loyqligini belgilovchi alomat. Qilmish jinoyat qonuniga muvofiq jazoga loyiq deb topilishi aynan aqli rasolik belgisiga bogʻliq.

Shu tufayli ham, aqli rasolik haqidagi taʼlimot jinoyat huquqi nazariyasining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, aqli rasolik har doim jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim boʻlgan shaxsning ajralmas belgisi, xususiyati sifatida eʼtirof etiladi.

Aqli noraso shaxs – shaxsning jinoyat sodir etish vaqtida oʻz harakatlari (yoki harakatsizligi)ning ijtimoiy xavfliligini va uning ijtimoiy xavfli oqibatini anglay olmaydigan va oʻz harakatlarini boshqara olmagan shaxs boʻlib, aqli noraso shaxs jinoyatning subyekt boʻla olmaydi. Biroq, JK 18-1-moddasi 1-qismiga koʻra jinoyat sodir etish vaqtida ruhiy holati buzilganligi tufayli oʻz harakatlarining (harakatsizligining) ahamiyatini toʻliq darajada anglay olmagan yoki ularni boshqara olmagan aqli raso shaxs javobgarlikka tortiladi [9, B.82].

A. Mamajonov aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holat buzilishi deb “aqli raso shaxsning jinoyat sodir etish vaqtida ruhiy holati buzilganligi tufayli jinoiy javogarlikka sazovor boʻlgan oʻz harakatlarining (harakatsizligining) ahamiyatini toʻliq darajada anglay olmaslik yoki ularni boshqara olmaslik bilan kechadigan ruhiy holat” [10, B.19] deb taʼriflaydi.

M.X. Rustamboyev qayd etganidek, jinoyat subyekt boʻlgan shaxsning muayyan rivojlanish bosqichidagi qobiliyati, ijtimoiylashuvidan kelib chiquvchi yoshdagi va jinoyat sodir etish vaqtidagi ruhiy jihatdan sogʻligʻi hamda harakatlari uchun oʻz-oʻziga hisob berishi va ularni boshqarishi, keyinchalik jinoiy javobgarlik va jazoni oʻtashdagi ruhiy holati sifatida belgilanadi [4, B.235].

Amaliyotda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning aqli rasoligiga nisbatan har qanday shubhalar, qachonki, uning oʻzini tutishi oʻz-oʻzini boshqarishiga toʻgʻri kelmasa, tashqi omillarga notoʻgʻri reaksiya va boshqalar, aybsizlik prezumpsiyasi mazmunidan kelib chiqib, shu shaxsning foydasiga hal qilinishi kerak. Bu holatlarda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan dastlabki tergovda uning ruhiy holatini aniqlash uchun JPK 173-moddasi 1-qismiga koʻra, majburiy tartibda sud-psixiatriya ekspertizasi oʻtkaziladi. Keyinchalik jinoyat sodir etgan shaxsning aqli rasoligi toʻgʻrisidagi masalani hal qilish sud-psixiatriya xulosasi asosida sud tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi JPK 446-moddasiga koʻra amalga oshiriladi.

Qonun chiqaruvchi, shuningdek, aqli norasolik mezonlarini ham aniq belgilab qoʻygan (Jinoyat kodeksining 18-moddasi). Sud ushbu mezonlarni inobatga olishi mumkin boʻlib, bunday hollarda shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Tadqiq etilayotgan jinoyatlar toifasi boʻyicha ham ayrim hollarda shaxslar aqli noraso deb topilgan.

Oliy sud tomonidan berilgan statistik maʼlumotlarga koʻra aqli noraso shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun

2020-yilda 1 nafar shaxsga,

2021-yilda 1 nafar shaxsga,

2022-yilda 2 nafar shaxsga

2023-yilda 3 nafar shaxsga

2024-yilda 1 nafar shaxsga nisbatan tibbiy yoʻsindagi majburlov choralari qoʻllanilgan [11. B.1]. Ushbu koʻrsatkichlar shuni koʻrsatadiki, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyatlari, odatda, aqli raso shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar sirasiga kiradi. Chunki mazkur jinoyat tarkibi subyektiv tomondan bevosita qasd mavjudligini talab qiladi, yaʼni shaxs oʻz harakatining ijtimoiy xavfliligini anglagan holda va uning oqibatlarini oldindan bilib, shunday oqibatlarining yuz berishini istab harakat qiladi. Aqli noraso shaxslar esa oʻz harakatlarining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglash yoki ularni boshqarish qobiliyatiga ega boʻlmaganligi sababli, jinoyat huquqi nuqtai nazaridan ularning qilmishlari jinoiy javobgarlikni yuzaga keltirmaydi.

Shu bilan birga, sud amaliyotida bunday holatlar aniqlangan taqdirda, shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlik choralarini qo'llash o'rniga tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash masalasi ko'rib chiqiladi.

Ushbu holatga oid quyidagi misolni keltirish mumkin. *“S.U.X. murojaatlari o'z yechimini topmayotganligi va mahalla fuqarolari u bilan yaxshi munosabatda bo'lmayotganligidan g'azablanib, o'ch olish maqsadida “Mahalla fuqarolar yig'ini” binosiga qasddan o't qo'yib shikastlagan. Jinoyat sodir etilgan vaqtda S.U.X. “Surinkali vasvasili buzilish” ruhiy kasalligi bilan xastalanganligi. Shu sababli u o'z harakatlarining haqiqiy xususiyatini va ijtimoiy xavfliligini anglay olmagan hamda ularni boshqara olmagan. sud-ruhiy ekspertiza xulosasiga ko'ra, S.I.N. aqli noraso deb topilgan va Jinoyat kodeksining 173-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni aqli norasolik holatida sodir etgani uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan. Unga nisbatan kuzatuv kuchaytirilgan Respublika psixiatriya shifoxonasida majburiy davolanish chorasi tayinlangan [12, B.1].*

Aqliy rivojlanish darajasi yoshiga nisbatan orqada qolib ketgan shaxslar (infantilizm) aqli norasolar hisoblanmaydi. Garchi ularning aqliy rivojlanishi orqada qolib ketgan bo'lsa-da, ular aqli raso hisoblanadi va shunga ko'ra, ular muayyan jinoyatning subyekti hisoblanadi. Biroq sudlar bunday shaxslarga jazo tayinlashda mazkur holatni jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida topishi mumkin [9, B.82].

Jinoyat subyektining yana bir zarariy beligisi shaxs jinoyat qonunda belgilangan yoshga yetganligi hisoblandi.

Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq, 173-modda 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatlarning subyekti – 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi. Shu bilan birga, 173-moddaning 2-3-qismida nazarda tutilgan jinoyat uchun javobgarlik 14 yoshga to'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi.

Qonun chiqaruvchi mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish uchun jinoiy javobgarlikka tortish yoshini nisbatan yuqoriroq belgilagan. 1959 yilgi O'zbekiston SSR JKda ham mazkur jinoyat uchun javobgarlik yoshi 16 yosh qilib belgilangan (O'zbekiston SSR JK 10-moddasi) [13, B.11].

Yosh mezonlari shaxsni jinoyat subyekti sifatida tan olishda kam ahamiyatga ega emas. Jinoiy javobgarlikning umumiy va maxsus yoshi qonun chiqaruvchi tomonidan Jinoyat kodeksining 17-moddasida belgilangan. Ko'pchilik jinoyatlarni sodir etgan shaxslar uchun jinoiy javobgarlik 16 yoshdan boshlab yuzaga keladi, Jinoyat kodeksining 17-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslar uchun esa javobgarlik 14 yoshdan boshlab belgilanadi.

Q.R. Abdurasulovning ta'biri bilan aytganda, jinoiy javobgarlik yoshining quyi chegarasi qonun chiqaruvchi organ tomonidan tibbiy-biologik (jismoniy va ruhiy rivojlanish darajasi va h.k.), ijtimoiy-psixologik (shaxsning aqliy, irodaviy va emotsional xususiyatlarining rivojlanishi darajasi va h.k.), sotsiologik (shaxsning ijtimoiylashishi darajasi) mezonlarning jami, shuningdek kriminologik ko'rsatkichlar (masalan, mazkur yoshdagi odamlar orasida ushbu jinoyat turining tarqalganligi, uning og'irligi, ijtimoiy xavfliligi va h.k.), jinoyat huquqi prinsiplari (masalan, jinoyat-huquqiy taqiqni belgilashning maqsadga muvofiqligi)dan kelib chiqib belgilanadi [14, B.16].

Amaldagi jinoyat qonunchiligida ayrim jinoyat tarkiblari bo'yicha jinoyat subyekti yoshi differensial tarzda belgilangan. Xususan, faqat og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilgan jinoyatlar uchun subyekt yoshi alohida tartibda nazarda tutilgan bo'lib, bu holat Jinoyat kodeksining 126¹-moddasi 4–8-qismlari, 173-moddasi 2–3-qismlari hamda 277-moddasi 2–3-qismlarida o'z ifodasini topgan.

Mazkur normalarga ko'ra, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (173-modda) hamda bezorilik (277-modda) jinoyatlarining asosiy tarkibi, ya'ni birinchi qismi uchun jinoyat subyekti yoshi umumiy qoida asosida 16 yosh etib belgilangan. Biroq ushbu jinoyatlarning

og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilgan turlari uchun jinoyat subyekti yoshi pasaytirilgan holda belgilanishi nazarda tutilgan.

Ta'kidlash lozimki, jinoyat qonunchiligida mustaqil tarkibli boshqa ko'plab jinoyatlar bo'yicha bunday yondashuv qo'llanilmagan. Ya'ni ayrim jinoyatlarda asosiy tarkib uchun yuqoriroq yosh chegarasi, og'irlashtiruvchi holatlar uchun esa undan pastroq yosh chegarasi belgilanishi amaliyoti kuzatilmaydi. Shu jihatdan, mazkur normalar jinoyat subyekti yoshini differensial belgilashga doir o'ziga xos huquqiy mexanizm sifatida e'tiborni tortadi.

Jinoiy javobgarlik yoshining quyi chegarasi qonunda ikki usul orqali tartibga solinishi mumkin: barcha jinoyatlarga nisbatan amal qiladigan umumiy norma ko'rinishida yoki umumiy norma bilan bir qatorda jinoyatlarning ma'lum doirasiga nisbatan amal qiladigan jinoiy javobgarlikning yosh chegaralarini nazarda tutadigan maxsus norma qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligida ikkala usuldan ham foydalaniladi [15, B.101].

Voyaga yetmaganlarning 14 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortilishi shu bilan izohlanadiki, bu yoshda ular shaxsga, o'zganing mulkiga va jamoat tartibiga daxl etish bilan bog'liq jinoyat huquqiy taqiqlarni yaxshi anglaydilar [15, B.104].

O'z tadqiqotlarini o'tkazgan olimlarning aksariyati 16 yosh har qanday odamning voyaga yetish jarayonida muayyan fiziologik bosqich hisoblanadi va bu yoshda u mushohada yuritish va o'z xulq-atvorini boshqarishga qodir bo'ladi deb hisoblaydi. O.N.Petrova fikriga ko'ra, qonun chiqaruvchi qasddan sodir etiladigan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik yoshini 16 yosh darajasida ular ayniqsa ijtimoiy xavfli qilmishlar hisoblanishi uchun emas, balki ularning ijtimoiy xavfiligi va "zararliligi"ni har kim o'z hayotining ilk davridayoq anglab yetishi tufayli belgilagan [16, B.21]. O.D. Sitkovskaya qayd etishicha, mavjud farqlarga qaramay, aksariyat mualliflar 11 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan davrni bolalikdan o'smirlikka o'tish bosqichi sifatida tavsiflaydilar. Ularning fikricha, mazkur bosqich aql va ruhiyatning, shuningdek, o'smir shaxsiyatining ancha tez rivojlanishi, bular unga o'z maqsad va mo'ljallarini xulq-atvor ijtimoiy me'yorlari bilan moslashtirish imkonini berishi bilan tavsiflanadi [17, B.109].

Jinoyat subyekti bo'la olish yoshi asosan voyaga yetmagan ongining rivojlanganlik darajasi, sodir etilayotgan hodisa va jarayonlarni anglash, shunga muvofiq ravishda harakat qila olish qobiliyati shakllangan davrdagi yoshidan hisoblandi. Kichik yoshdagilarda bunday qobiliyat hali shakllanmaganligi tufayli ular jinoyat subyekti bo'la olmaydilar [18, B.105].

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 21-sonli "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida ta'kidlanganidek, Jinoyat kodeksining 17-moddasi, Jinoyat-protsessual kodeksining 548-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan shaxsning yoshini aniqlash majburiy hisoblanadi. Chunki uning yoshi isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar qatoriga kiradi va jinoiy javobgarlikka tortishning shartlaridan biri hisoblanadi.

Plenum qarorida yana shu ham adolatli ravishda tushuntirilganki, shaxs jinoiy javobgarlik yuzaga keladigan yoshga tug'ilgan kunida emas, balki shu kun tugagandan keyin, ya'ni keyingi sutkaning soat 00:00 dan boshlab yetgan deb hisoblanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni yoshi sud-tibbiyot ekspertizasi tomonidan aniqlanayotganda, uning tug'ilgan kuni deb, ekspertlar aniqlagan yilning oxirgi kuni hisoblanadi. Yosh eng kam va eng ko'p yillar miqdori bilan aniqlanganda, sud ekspertlar tomonidan belgilangan eng kam yoshdan kelib chiqishi lozim [19].

D.M. Kushbakov o'z tadqiqotlarida shaxs rivojlanishning aqliy, irodaviy va shaxsiy darajasi hamda jazoning maqsadiga erishish nuqtai nazaridan jinoiy javobgarlikning past chegarasini belgilash uchun o'n to'rt yoshga to'lganlikni eng maqbul deb hisoblaydi va amaldagi Jinoyat kodeksida jinoiy

javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshning minimal chegarasini qat'iy ravishda o'n to'rt yosh etib belgilash maqsadga muvofiqligini asoslantirgan [20, B.13].

Aksariyat olimlar 16 yosh har qanday odamning voyaga yetish jarayonida muayyan fiziologik bosqich hisoblanadi va bu yoshda u mushohada yuritish va o'z xulq-atvorini boshqarishga qodir bo'ladi, deb hisoblaydi. O.N.Petrova fikriga ko'ra, qonun chiqaruvchi qasddan sodir etiladigan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik yoshini 16 yosh darajasida ular ayniqsa ijtimoiy xavfli qilmishlar hisoblanishi uchun emas, balki ularning ijtimoiy xavfliligi va "zararliligi"ni har kim o'z hayotining ilk davridayoq anglab yetishi tufayli belgilagan [21, B.89].

D.M. Kushbakov keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, yoshi ulug' insonlar manfaatlarini jinoyat-huquqiy muhofaza qilinishi va insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, jinoyat qonunida keksa yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni jazoni yengillashtiruvchi holati sifatida nazarda tutish (og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar bundan mustasno) lozim deb hisoblaydi [20, B.13].

Qonun chiqaruvchi JK 173-moddasida nazarda tutilgan jinoyat uchun javobgarlik yoshini mustahkamlar ekan bunda shaxs o'zining aqliy va ruhiy rivojlanish darajasiga ko'ra ayni shu yoshdan boshlab ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligini anglashi mumkinligidan kelib chiqqan.

Qonun chiqaruvchining fikriga ko'ra 14 yoshga yetgan shaxs sodir etilayotgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori ekanligini anglash qobiliyatiga ega bo'ladi. Qasddan o'zgarlar mulkini nobud qilish yoki zarar yetkazishning jinoyatlarini og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etganlik (Jkning 173-moddasi 2-3-qismlari) uchun jinoiy javobgarlik 14 yoshdan boshlanadi. Bu, bolaning o'z harakatlari haqidagi voqea xarakterini anglay olish qobiliyatiga ega bo'lishi bilan izohlanadi. Shu yoshga yetgan shaxs, mulkni qasd nobud qilish yoki unga zarar yetkazishning jamoatchilikka xavfliligini to'liq baholay oladi, agar bu harakatlar xuliganlik maqsadida, yoqish, portlash yoki boshqa jamoatchilikqa xavfli usullar bilan sodir etilsa.

Bizningcha, 14 yoshga yetgan shaxs o'zining boshqalarga tegishli mol-mulkni qasddan nobud qilayotgani yoki unga zarar yetkazayotganini anglash qobiliyatiga ega. Biroq shuni ham hisobga olish kerakki, voyaga yetmaganlarning harakatlarida har doim ham g'arazli yoki bezorilik motivlari mavjud bo'lavermaydi. Ular hazil, qiziqish yoki boshqa turli motivlar ta'sirida ham harakat qilishlari mumkin. Masalan, bunday shaxslar futbol muxlislari bo'lishi ham mumkin.

Yuridik adabiyotlarda JK 173-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan qilmish uchun jinoiy javobgarlik yoshining asossiz ravishda oshirilganligi haqidagi fikrlar ham uchraydi [22, B.99].

Mazkur nuqtai nazar yetarli darajada asosli emas, deb hisoblanadi. Chunki jinoiy javobgarlik yoshining 16 yosh etib belgilanishi qonun chiqaruvchi tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishning o'ziga xos xususiyatlari hamda uni sodir etuvchi shaxsning individual-psixologik belgilarini inobatga olgan holda amalga oshirilgan.

Shu nuqtai nazardan, A.S. Mironchikning fikriga qo'shilish maqsadga muvofiqdir: jinoiy javobgarlik yoshini pasaytirish faqat istisno holatlarda, ya'ni mazkur turdagi qilmishlarning ijtimoiy xavflilik darajasi hamda ularning 14-16 yoshdagi shaxslar orasida tarqalganlik ko'lami chuqur tahlil qilingan holdagina asosli deb topilishi mumkin [23, B.93].

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2024-yilda voyaga yetmagan shaxslar tomonidan 3364 ta jinoyat sodir etilgan, umumiy jinoyatlar soniga nisbatan 5.6 foizni tashkil etadi. Sud hukmlari tahlili shuni ko'rsatadiki 173-modda bo'yicha sudlangan voyaga yetmagan shaxslar soni kamligini ko'rsatadi. Ular umumiy ushbu modda bo'yicha sudlanganlar orasida 4% dan oshmaydi, 14-16 yoshdagilar esa taxminan 0,7% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich yildan yilga pasayab boradi.

Jinoiy javobgarlik yoshini pasaytirish masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. Amaldagi normativ yondashuv, ya'ni jinoiy javobgarlik yoshining 16 yosh etib belgilanishi, faqat alohida kvalifikatsiyalangan holatlarda esa 14 yoshdan boshlanishi, ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan asoslangan hisoblanadi. Shu bois, mavjud statistik va huquqiy tahlillar fonida jinoiy

javobgarlik yoshini umumiy tartibda pasaytirish maqsadga muvofiq emas, balki faqat istisno holatlarda, aniq kriminologik asoslar mavjud bo'lgandagina ko'rib chiqilishi lozim.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES:

1. Волкова И.А. Ответственность за фальсификацию доказательств по уголовному делу: Дисс. канд. юрид. наук. – М., 2005. – С. 72.
 2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. (2026-yil 20-yanvargacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Yuridik adabiyotlar publish. –Toshkent. 2026-yil. 304-bet. // URL: <https://lex.uz/docs/-111453#-179930>
 3. Махмудов О. (2026). Субъект в уголовном праве: вопросы уголовной ответственности физических и юридических лиц. Общество и инновации, 7(1), 205–211. URL: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol7-iss1-pp205-211>
 4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. -234
 5. Altiyev R.S. Firibgarlikning jinot-huquqiy va kriminologik jihatlari. Monografiya // Mas'ul muharrir: yu.f.d., professor G.Z.Tulaganova. – 66 b.
 6. Фёдоров А. В. Уголовная ответственность юридических лиц в постсоветских государствах: монография. М., 2022
 7. Utemuratova S. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar subyekti sifatida – yuridik shaxslar // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. No 3 (2024) B. 71-77. URL: <https://yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/985>
 8. Кушбаков Д.М. Юридик шахслар жиноий жавобгарлигининг хусусиятлари //Academic research in educational sciences volume 2 | issue 5 | 2021. – С.1029-1037. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yuridik-shahslar-zhinoiy-zhavobgarligining-hususiyatlari>
 9. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 82 b.
 10. Mamajanov A.M. Aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslarning jinoyat javobgarligi. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2024. 19-b.
 11. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 13-martdagi 07-14/25-7833-sonli javob xati.
 12. Jinoyat ishlari bo'yicha Urgut tuman sudining 2024-yil 18-martdagi ajrimi // URL: <https://public.sud.uz/report/>
- CRIMINAL
13. O'zbekiston SSRning Jinoyat kodeksi. Nashr uchun mas'ullar: M.Vosiqova, T.Nigmonov. – Toshkent: O'zbekiston, 1977. – B. 11.
 14. Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus subyekti: O'quv-qo'llanma. – Toshkent: TDYUI, 2005. – B. 16.
 15. Adurasulova K.R. Voyaga yetmagan shaxsni jinoyatning subyekti deb topishning zaruriy belgisi // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B.99-110. URL: <https://www.yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/1188>
 16. Петрова О.Н. Назначение уголовного наказания несовершеннолетним (уголовно-правовые и криминологические аспекты): Автореф. дисс. ...канд. юрид. наук. – Волгоград, 2004. – С. 21.
 17. Ситковская О.Д. Психология уголовной ответственности. – М., 1998. – С. 109.
 18. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., «Yangi asr avlodi», 2010, bet.
 19. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 21-sonli "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-1449720>
 20. Kushbakov D.M. Jinoyat subyekting jinoyat-huquqiy tavsifi va xususiyatlari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2021. 13 b. URL: <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/7007/61850045ae5a2.pdf>
 21. Павлов В.Г. Субъект преступления. – СПб., 2001. – С. 89.
 22. Плютиня Е.М. Уничтожение или повреждение имущества: проблемы квалификации и соотношение со смежными составами преступлений (по материалам судебной практики Краснодарского края): дис. ... канд. юрид. наук / Е.М. Плютиня. – Краснодар, 2006. – С. 99.
 23. Мирончик, А.С. Преступные уничтожение или повреждение чужого имущества: Обоснованность криминализации, оптимизация законодательного описания, квалификация: дис.канд. юрид. наук / А.С. Мирончик. – Красноярск, 2009. – С. 93–94.

YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEP 2

LAWYER HERALD

ISSUE 2

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/2

2026-YIL